TARBIYA OILADAN BOSHLANADI

Mardonov Shukurullo Qo‘ldoshevich
pedagogika fanlari doktori, professor,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim boshlig‘i,
Dilorom Xodjimetova Djurayevna
fan nomzodi, Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada shaxs kamoloti va bola tarbiyasida oilaning ijtimoiy-pedagogik o‘rni hamda ota-onalarning ilk tarbiyachi sifatidagi ustuvor vazifalari yoritilgan. Mualliflar oilaning tarbiyaviy potensiali tushunchasini atroflicha tahlil qilib, uning tarkibiy komponentlari (moddiy-maishiy sharoit, ijtimoiy-psixologik muhit, pedagogik madaniyat, axloqiy yo‘nalganlik hamda oilaviy munosabatlar xarakteri) ni ko‘rsatib berishadi. Tadqiqotda V.G. Maksimov hamda o‘zbek olimlarining yondashuvlari asosida oilaviy tarbiya potensialining rivojlanish darajalari (yuqori, o‘rta, past) tasniflangan. Shuningdek, ota-onalarning shaxsiy namunasi, avtoriteti hamda emotsional-muvaffaqiyatli oilaviy muhitning bola ruhiyati va ijtimoiy moslashuviga ta’siri asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: oila tarbiyasi, tarbiyaviy potensial, pedagogik madaniyat, J.J. Russo, V.G. Maksimov, ota-ona va bola munosabatlari, axloqiy yo‘nalganlik, emotsional barqarorlik, shaxsiy namuna, ijtimoiy pedagogika.

Аннотация: В статье освещается социально-педагогическая роль семьи в развитии личности и воспитании ребенка, а также приоритетные задачи родителей как первых воспитателей. Авторы всесторонне анализируют понятие воспитательного потенциала семьи, показывают его составные компоненты (материально-бытовые условия, социально-психологическая среда, педагогическая культура, нравственная направленность и характер семейных отношений). В исследовании на основе подходов В.Г. Максимова и узбекских ученых классифицированы уровни развития потенциала семейного воспитания (высокий, средний, низкий). Также обосновано влияние личного примера, авторитета родителей и эмоционально-успешной семейной среды на психику и социальную адаптацию ребенка.

Ключевые слова: семейное воспитание, воспитательный потенциал, педагогическая культура, Ж.Ж. Руссо, В.Г. Максимов,

отношения родителей и детей, нравственная направленность, эмоциональная устойчивость, личный пример, социальная педагогика.

Abstract: The article highlights the socio-pedagogical role of the family in personal development and child upbringing, as well as the priority tasks of parents as primary educators. The authors provide a comprehensive analysis of the concept of the family's educational potential and indicate its structural components (material and living conditions, socio-psychological environment, pedagogical culture, moral orientation, and the nature of family relations). In the study, based on the approaches of V.G. Maksimov and Uzbek scientists, the levels of development of the potential of family upbringing are classified (high, medium, low). Additionally, the influence of personal example, parental authority, and an emotionally successful family environment on the child's psyche and social adaptation is substantiated.

Keywords: family upbringing, educational potential, pedagogical culture, J.J. Russo, V.G. Maksimov, parent-child relationships, moral orientation, emotional stability, personal example, social pedagogy.

Oila – bola tarbiyasining muhim o‘chog‘i. Aynan ota-onalar – ilk tarbiyachilar va ular bola tarbiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadilar. Mutafakkir J.J. Russo ta’kidlaganidek, har bir navbatdagi tarbiyachining bolaga tarbiyaviy ta’siri oldingisiga nisbatan kamroq bo‘ladi. Ota-onalar bog‘cha tarbiyachilaridan ham, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan ham, fan o‘qituvchilaridan ham oldinda turadigan tarbiyachi hisoblanadilar, ota-onaga tabiatning o‘zi shunday ustuvorlik berib qo‘ygan.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda bolaning oiladagi tarbiyasiga, uning tarbiyaviy potensialini joriy qilishga katta e’tibor bilan qarashadi.

Oilaning tarbiyaviy potensiali o‘zida qator komponentlarni mujassamlagan:

oilada moddiy-maishiy sharoitlarning mavjudligi;

oila tuzilishi va soni;

oilada ijtimoiy-psixologik muhitning yaratilganligi;

oila a’zolarining munosabatlari xarakteri;

oilada bo‘sh vaqtning mavjudligi;

oilada bo‘sh vaqtning tashkillashtirilishi;

oiladagi kattalarning savodxonlik darajasi;

oilaning madaniy rivojlanish darajasi;

oilaviy an’ana va udumlarning mavjudligi.

Oila tarbiyaviy potensialini o‘rgangan o‘zbek olimlari X.I. Ibraimov,

M.Q. Quronov, J. Fozilov, F. Zaripovlar o‘zlarining “Ota-ona murabbiy” kitobida o‘zbek oilasining o‘ziga xos xususiyatlari, uning bola tarbiyasida tutgan o‘rni to‘g‘risidagi fikr va tavsiyalari bilan o‘rtoqlashgan. Shuningdek, V.G. Maksimov oilaning komponent sostavini ishlab chiqqan va oila tarbiyaviy potensiali rivojlanish darajasining yuqori, o‘rta va past darajalarini taklif qiladi.

Oila tarbiyaviy potensialining birinchi komponenti – bu oilada tarbiyaning maqsad va vazifalarini tushunib yetishdir. Oilaviy tarbiyaning maqsad va vazifalarining mavjud emasligi bu oilada ushbu komponentning past darajda rivojlanganligidan darak beradi. O‘rta darajada oilaviy tarbiya maqsad va vazifalarining pedagogika fani talablariga ushbu oiladagi mosligi tushuniladi. Yuqori darajadagi tarbiyaviy potensialga ega oilalarda tarbiya maqsad va vazifalari to‘g‘ri tushuniladi.

Oila tarbiya potensialining ikkinchi komponenti – bu oiladagi yuqori darajadagi pedagogik madaniyatning mavjudligi tushuniladi. Past darajadagi tarbiya potensiali rivojlangan oilalarda pedagogik-psixologik bilimlarning ham past darajasi kuzatiladi. O‘rta darajada tarbiya potensiali rivojlangan oilalarda ota-onalarning pedagogika va psixologiya bo‘yicha bilimlari uzuq-yuluq, bog‘lanmagan xarakterga ega bo‘ladi; oilada nazariy bilimlar amaliyotda doimo ham to‘g‘ri qo‘llanilavermaydi, pedagogik usullardan esa intuitiv ravishda foydalanadilar. Yuqori darajadagi tarbiya potensiali yaxshi tayyorlangan oilalarga xos bo‘lib, unda oila a’zolari pedagogika va psixologiya masalalari bilan, o‘zini o‘zi o‘qitish bilan faol shug‘ullanadilar.

Oila tarbiya potensialining uchinchi komponenti – bu amaliyotda tarbiya metod va vositalaridan foydalana bilish ko‘nikmasiga egalik tushuniladi. Oila tarbiyaviy potensialining past darajasi deganda ota-onalarning tarbiyaning pedagogik metod va vositalaridan foydalanishni bilmasliklari tushuniladi. O‘rta darajadagi oilalarda nazariy bilimlardan amaliyotda hamisha ham to‘g‘ri foydalana bilmaslik tushuniladi. Tarbiya potensiali yuqori darajada rivojlangan oilalarda bola tarbiyasining metodlaridan to‘g‘ri va ongli ravishda qo‘llash ko‘nikmalariga egalik tushuniladi.

Oila tarbiyaviy potensialining to‘rtinchi komponenti – ota-onalarda bola tarbiyasiga mas’ullik hissining mavjudligidir. Tarbiya potensiali past darajada rivojlangan ota-onalarda mas’uliyatlilik yetishmaydi, ko‘p hollarda bola tarbiyasiga mas’uliyatsiz yondashadilar, bolalari oldiga kerakli talablarni qo‘ya bilmaydilar, ularning xulqini nazorat qilmaydi, yaxshi odatlarga o‘rgatmaydi. Tarbiya potensiali o‘rta darajada rivojlangan oilalarda bola tarbiyasiga mas’uliyatli yondashadilar, ammo yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘lmaslik, doimiy band bo‘lish natijasida

bola tarbiyasida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar. Tarbiya potensiali yuqori darajada rivojlangan oilalarda o‘z bolalari tarbiyasi uchun jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qiladilar, ular oilada bola tarbiyasi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib qo‘yadilar.

Oila tarbiyaviy potensialining beshinchi komponenti – bu oilaning ichki munosabatlari xarakteridir. Tarbiya potensiali past darajada rivojlangan oilalarda oila ichki munosabatlari nizoviy, ayrim hollarda, axloq qoidalariga zid xarakterga ega. Tarbiya potensiali o‘rta darajada rivojlangan oilalar ichki munosabatlarda ochiq nizolar kuzatilmaydi, ammo oila a’zolarining o‘zaro bir-birini tushunmaslik holatlari kuzatiladi. Tarbiya potensiali yuqori darajada rivojlangan oilalarda oila a’zolarining bir-birini o‘zaro tushunishlari, inoqlik sezilib turadi.

Oila tarbiyaviy potensialining oltinchi komponenti – bu oilada ota-onalarning namunaviy xulqi va avtoritetining joriy qilinganligidir. Tarbiya potensiali past darajada rivojlangan oilalarda ota-onalar yoki ulardan biri bola shaxsiga yomon ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tarbiya potensialining o‘rtacha rivojlanish darajasida bolada manfaatparastlik, narsaparastlik, yolg‘on obro‘ kabilar ota-onaning axloqidan kelib chiqib rivojlanishi mumkin. Tarbiya potensiali yuqori darajada rivojlangan oilalarda ota-onalar yuqori axloq namunalari orqali bolalar oldida haqiqiy obro‘-e’tiborga sazovor bo‘ladilar.

Oilada tarbiya potensiali turlicha bo‘ladi, ayrimlar ustuvor, ayrimlari ikkinchi darajali.

Oilada tarbiya potensialining yetakchi komponenti sifatida ichki oilaviy munosabatlarni keltirish mumkin, bu komponent bola shaxsini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ota-onalar munosabatining eng yaxshi varianti – agarda ularda o‘zaro muloqotga doimiy ehtiyoj bo‘lsa, o‘zaro ishonch va ochiqlik, tenglik bo‘lsa, ota-onalar bolani tushunishga intilsa, uning ehtiyojlarini bilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Munosabatlarning keng tarqalgan variantlaridan biri – ota-ona bolaning qiziqishlariga, uning ehtiyojlarini anglashga harakat qiladilar, ammo bola buni tushunmaydi, u “o‘zi bilan o‘zi” bo‘lib qoladi, demak, bunda ota-ona bola olamiga yo‘l topa olmadi, ular bosim qilishdi, o‘z qarashlarini majburlab singdirishga harakat qilishdi, bu natija bermaydi.

Ota-onalar va bolalar orasida yana shunday munosabatlar ham ko‘zga tashlanadi: ota-onalar o‘zlari o‘zi bilan, ish bilan band, ularning bola bilan yurakdan muloqot qilishga vaqtlari yo‘q, bunda bolada xafagarchilik, dilisiyohlik hissi paydo bo‘ladi, u yolg‘iz, g‘arib bo‘lib o‘sadi.

Oilaning ichki munosabatlarida muhim aspektlardan biri – bu ota-

onalarning o‘zaro munosabatlaridir.

Inson hayotining barcha davrlarida ota-ona bola uchun namuna sanaladi. Shuning uchun ham bola xulq-atvorida ota-onasining yurish-turishidan, munosabatlaridan o‘zlashtirilgan nusxani kuzatish mumkin.

Ma’lumki, oila kichik ijtimoiy guruh sifatida eng yaxshi tarbiyaviy muhit sanaladi, ammo ota-onalarning o‘zaro munosabatlarida negativ holatlarning uchrashi, oilaning tarbiyaviy potensialini pasaytirib yuborishi mumkin, natijada, o‘smir xulq-atvorida buzilishlar, ularning shaxs sifatida shakllanishida salbiy holatlar uchraydi.

Bolalar tarbiyasi funksiyasini bajarishda er-xotinning roli beqiyos. Oilaviy muhitning barqarorligi bola ruhiy sog‘ligi va emotsional holati muvozanatida muhim omil hisoblanadi.

Bola shaxsi rivojlanishiga ota-ona munosabatidagi bosim va nizolar negativ ta’sir ko‘rsatadi. Bola uchun oilasi (uyi) uning tayanchi, quvonchi bo‘lmay qoladi, u xavfsizlik hissini yo‘qotadi, bola uchun oila namuna bo‘lmay qoladi, o‘z qadriyatlarini yo‘qotadi. Ota-onaga nisbatan bunday barqarorlikning yo‘qotilishi bola uchun, o‘smir uchun tayanchni o‘z uyidan boshqa joydan izlashiga olib keladi. O‘smir bunday holatda tashqi ta’sirga moyil bo‘ladi, tashqi ta’sirni tez qabul qiladi va shu orqali u o‘zining ichki bosimini yengillashtirishga harakat qiladi.

Oila tarbiya potensialining yana bir muhim komponenti bu oilaning axloqiy yo‘nalganligi hamda ota-onaning pedagogik madaniyati hisoblanadi. Oilaning axloqiy yo‘nalganligi unda ota-onaning xulq-atvorning axloqiy me’yorlari va prinsiplariga amal qilish darajasi bilan xarakterlanadi. Bu ko‘rsatkich oilaviy hayot obyektiv mazmunini aniqlash, oila a’zolarini faoliyatga chorlash, ularning qiziqishlari va ideallari, qarashlari va ishonchlarini taqozo qiladi.

Ota-onalarning bolalarida ijobiy axloqiy his-tuyg‘ularni hamda uni adekvat idrok qilish hissini tarbiyalash uchun oilada shunday vaziyatni, holatni yaratish kerakki, undan bola ijobiy, pozitiv taassurot olish imkoniga ega bo‘lsin. Kelgusida bolada shaxsiy sifatlar, ishonch va ideallar shakllanadi hamda bola o‘zini hamda atrof-olamni baholab boradi.

Agarda uch yetakchi ko‘rsatkich – oilaviy ichki munosabatlar, axloqiy yo‘nalganlik, ota-ona pedagogik madaniyati – oilada yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘zini ko‘rsatsa, unda har bir konkret oilaning yuqori darajadagi tarbiya potensialining mavjudligi to‘g‘risida fikr yuritsa bo‘ladi. Aynan to‘liq emotsional-muvaffaqiyatli oilagina garmonik rivojlangan shaxsni shakllantirish uchun zaruriy tarbiya potensialiga ega bo‘ladi va bunday oila kelgusida oilaviy hayotning samarali ijtimoiylashuviga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibraimov X.I. va boshq. Ota-ona – murabbiy. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2024. – 220 b.
2. Mardonov Sh.Q. Pedagogik aksiologiyaga kirish. – Toshkent: Zebo print, 2023. – 267 b.
3. Quronov M. Otalar kitobi. – Toshkent, 2007. – 86 b.